

HOZIRGI O‘ZBEK TILIDA FUTBOL, MINI FUTBOL ATAMALARINING QO‘LLANILISHI

Ismailov Jahongir Jaloliddinovich

O‘zbekiston Davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti

O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi

Annotasiya: *Ishning dolzarbligi bir necha omillar bilan belgilanadi. Birinchidan, keyingi o‘n yilliklar mobaynida sport tili eng jadal rivojlanayotgan leksik tizimlardan biri bo‘lib qoldi (1). Ikkinchidan, umuman sport atamashunosligi, xususan, o‘zbek tilidagi sport atamalari tizimi, garchi u yuzaga kelganidan necha o‘n yilliklar o‘tgan bo‘lsa- da, yaxshi o‘rganilmagan. Sport tili dunyoning barcha tillaridagi, ayni paytda o‘zbek tilidagi eng faol tizimlardan biri, ammo bu mavzuga bag‘ishlangan ishlar nihoyatda kam.*

Kalit so‘zlar: *Nutq, zamonaviy tilshunoslik, kompozision, futbol, dunyoqarash, mini futbol, fikrning emosionalligi.*

XX asr oxirida sport insonning kundalik hayoti bilan chambarchas bog‘liq hodisaga aylandi. Odamlarda ommaviy ravishda sportga kuchli qiziqish uyg‘ondi, dunyoda sog‘lom turmush tarzi degan tushunchaning mavqeyi nihoyatda yuqorilab ketdi. Hozirgi vaqtda sport hatto ilgari passiv tomoshabin bo‘lish bilan cheklanib kelgan kishilarni ham o‘ziga jalb qildi, ommaviy madaniyat va moda ta'sirida ko‘pchilik o‘z maishiy hayotini boshqa izga solishga urinmoqda. Sog‘lom, chiroyli ko‘rinishga ega bo‘lishni istaganlar uchun sport asta-sekin yashash tarzining ajralmas qismiga aylanyapti. Jamiyatdagi bu o‘zgarishlarning natijasi o‘laroq, bizning so‘z boyligimiz keyingi yillarda muntazam ravishda yangi sport leksikasi bilan to‘lib bormoqda.

Turli tillar tizimlarida futbol atamalari ilmiy jihatdan katta qiziqish uyg‘otadi. Futbol atamalari tizimini o‘rganish umumqo‘llanuvchi so‘zlarning atamalashish jarayoni qanday sodir bo‘layotganini va qaysi manbalar bu atamalar uchun tipik ekanligini kuzatish imkonini beradi (2). O‘zbek futboli tili boshqa jamoali sport turlari tili kabi yangi qabul qilingan so‘zlar (asosan, inglizcha-amerikacha) juda kengaydi. Lekin zamonaviy sport turlariga nisbatan futbolda so‘z qabul qilish ancha kam uchraydi.

Agar umumqo‘llanuvchi so‘zlarga nisbatan oladigan bo‘lsak, futbol atamalari bir turli emas. Bu atamalarning ko‘pchilik qismi kundalik turmushda faol qo‘llanadigan so‘zlar bo‘lib, ularning leksik ma'nosi o‘zgargan va futboldagi maxsus tushunchalarni ifodalay boshlagan. Ko‘pgina futbol atamalari o‘lkamizda bu sport turi paydo bo‘lishidan ko‘p asrlar ilgari ma'lum bo‘lgan (masalan, darvoza, uchrashuv, mehmonlar, hujum, himoya,

zarba). Futbol atamalarining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shuki, ular ko'proq umumqo'llanuvchi so'zlar asosida shakllangan (2). Atamalashish jarayonida mazkur so'zlar orqali ifodalangan tasavvurlar o'z hajmini toraytirib, mazmunini kengaytirishi hisobiga kasbiy tushunchalarga aylana borgan (masalan, maydon, hisob).

Futbol atamalarining shakllanishi turli faoliyat sohalariga murojaat qilish bilan ham bog'liq. Masalan, harbiy sohaga oid hujum, mudofaa, himoya, qarshi hujum, merganlik kabi so'zlar futbol uchrashuvlarida tez-tez quloqqa chalinadi. Ilm-fan, texnikaga, shuningdek, ijtimoiy-siyosiy jabhalarga doir texnika, klub, liga singari so'zlar uchraydiki, ular sport o'yinlarining boshqa turlarida ham qo'llanadi. Masalan, xokkeyning to'pli, shaybali yoki chim ustida o'ynaladigan turlarida, basketbol, gandbol (qo'l to'pi), suv polosida keng foydalaniladigan aut, gol, match, ochko so'zlari futbol o'yinida ham asosiy tushunchalardan sanaladi (3).

O'zbek tilidagi futbol atamalarini uch guruhga bo'lish mumkin:

1. Umumqo'llanuvchi so'zlar - umumxalq tilimizda ifodalangan ma'nosidan uncha farq qilmaydigan, ammo maxsus mazmun kasb etgan so'zlar: to'p, o'yinchi.

2. Umumiy sport atamaları - boshqa sport turlarida ham uchraydigan maxsus so'zlar: ofsayd, shtanga.

3. Sof futbol atamaları: penalti, golkipер.

O'zining kelib chiqishiga ko'ra futbol atamalarini ikki katta guruhga taqsimlash mumkin:

1. O'zbekcha so'zlar (ular tarkibiga aslida arab yoki fors-tojik tillaridan qabul qilingan, lekin ko'p asrlardan buyon o'zbek tili lug'at boyligini tashkil qilib kelayotgan so'zlarni ham kiritdik): darvoza, uchrashuv, hujum, himoya, zarba, o'yinchi, ustun, yarim himoyachi.

2. Qabul qilingan so'zlar - asosan Yevropa xalqlari tillaridan qabul qilingan atamalar: aut, gol, korner, ofsayd, pas, futbol (inglizcha); kapitan (fransuzcha, hozirda uning o'rnida o'zbekcha sardor so'zi qo'llanyapti); arbitr, final (lotincha); bombardir, shtanga (nemischa); strategiya, taktika (yunoncha); fint (italyancha).

Albatta, qabul qilingan so'zlarning asosiy qismi inglizcha bo'lib, agar futbol dastlab Angliyada paydo bo'lganini, shu yerda uning qonun-qoidalari ishlab chiqilganini e'tiborga olsak, bu mutlaqo tabiiy. Hozir bular sport faoliyatining mazkur sohasidagi xalqaro atamlar hisoblanadi.

O'zbek tilining sport atamaları asosan XX asrning ikkinchi yarmida rivojlana boshladi, hozirgi vaqtda ham yangi sport turlariga oid atamalar ko'plab yaratilyapti. Futbol tili haqida fikr yuritadigan bo'lsak, anchagina atamalarning o'zbekcha muqobili bo'lsa ham, bunda baynalmilal so'zlarni ko'proq qo'llashga moyillik ustun. Misol tariqasida yuqorida ham keltirganlarimiz qator so'zlarni ko'rsatishimiz mumkin: ofsayd - o'yindan tashqari

holat, golkipер - darvozabon, forvard - hujumchi, xavbek - himoyachi, referi / arbitр - maydondagi hakam, laynsmen - yon chiziqdagi hakam, penalti - o‘n bir metrlik zarba, autsayder - omadsiz (o‘yinchi), vinger - qanot yarim himoyachisi, doping - giyohvand modda / qo‘zg‘atuvchi vosita, dribling - to‘pni olib yurish, insayd - yarim o‘rta hujumchi, korner - burchak zarbasi, kouch - bosh murabbiy, libero - erkin himoyachi, stopper - tayanch himoyachi, fol - qoidani buzish, xet-trik - uchta gol, shtanga - darvoza ustuni. Qabul qilingan bu so‘zlarni qo‘llashdan o‘zbek futbol sharhlovchilari, sportga oid ommaviy axborot vositalari xodimlari imkon qadar qochishga harakat qilsalar-da, ulardan futbolchilarning o‘zi va sport ixlosmandlari juda ko‘p foydalanishadi.

Futbol sport turida keng qo‘llanadigan bir qator ruscha so‘zlar ham borki, millionlar o‘yining ayrim ashaddiy muxlislari ularning o‘zbekcha muqobillari mavjudligini xatto bilmaydilar ham: ворота - darvoza, вратарь - darvozabon, стенка (o‘yinchilarning darvozani himoya qilish uchun saflanib turishi yoki bir o‘yinchining ikkinchisiga pas berishi va boshqa vaziyatda undan to‘pni qabul qilib olishidan iborat texnik usul) - devor, ножницы (hujumchining darvozaga orqa o‘girib turib, yiqilayotganda o‘z ustidan oshirib to‘pga zarba berishidan iborat texnik usul) - “qaychi”, “горчичник” (og‘zaki nutqda) - sariq kartochka, перехват - (to‘pni) ilib ketish, штрафной - jarima, замена - almashtirish, запас, резерв - zahira, сборная команда – terma jamoa, ничья - durang va h.k.

Bugun o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi mavqeyini oshirish maqsadida amalga oshirilayotgan tadbirlar jismoniy tarbiya va sport sohasiga oid atamalar yuzasidan ham chuqur tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi. Jumladan, sport turlari, sportchilarning nomlari, harakatlar, usullar, holatlar, vaziyatlar, sport asbob- uskunalari hamda anjomlarining nomlari, soidabuzarliklar, xatolar, jazo turlari, sport inshootlari bilan bog‘liq atamalar ustida izlanishlarni yo‘lga qo‘yish – davr talabidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Джонич В. Способы образования спортивной терминологии в русском языке. Ниш, 2004.
2. Истрате П. Футбольная терминология как результат функционирования терминов в системах разных языков. Яссы, Русский язык за рубежом, 2005.
3. Мухамедова Н.И. Функционирование лексических единиц в спортивной сфере. Астрахань, АГУ, 2005.
4. qizi Po‘latova, S. I. (2023). VOLEYBOL O ‘YININI O ‘RGATISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(10), 174-178.
5. Yo‘ldashev, I. (2023). O ‘QUVCHILARNI KASB-HUNARGA SAMARALI YO ‘NALTIRISH PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK, IJTIMOIIY MUAMMO SIFATIDA. FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES, 2(19), 7-15.
6. Umaraliyevna, X. E. (2024). VOLEYBOLDA–STRATEGIYA VA TAKTIKA. Научный Фокус, 1(9), 274-279.
7. Po‘latova, S., & Xudaybergenova, E. (2024). Shaxsning individual psixologik-xususiyatlari. Modern Science and Research, 3(1), 1-3.
8. Umaraliyevna, X. E. (2024). VOLEYBOLCHILAR SPORT TRENIROVKASINING VOSITALARI. SO ‘NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 7(1), 207-213.